



“DEVONI LUG’ATIT TURK” ASARIDAGI LEKSIK BIRLIKLAR TALQINI

Xongeldiyeva Sevara Shuxrat qizi

*O’zbek filologiyasi fakulteti Filologiya va tillarni o’qitish:
o’zbek tili ta’limi yo’naliishi 3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Bu maqolada “Devoni lug’atit turk”da keltirilgan oziq-ovqat nomlari leksik-semantik tahlil ostiga olingan. Lug’atdagи ayrim leksemalar borasidagi fikr-mulohazalar yuritilgan.

Kalit so’zlar: Oziq-ovqat nomlari, leksemalarining leksik-semantik tahlili.

Qadimgi turkiy lug’atlarda qo’llanilgan oziq-ovqat nomlarining ayrimlari bugungi kunda ham faol qo’llanilgan oziq-ovqat nomlarining ayrimlari bugungi kunda ham faol qo’llanadigan so’zlar sirasiga kiradi. Ushbu lug’atlarda uchrovchi oziq-ovqat nomlari bo'yicha o'zbek tilshunosligida bir qancha ishlар amalga oshirilgan va hali ham tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, bitta leksema bir qancha lug’atda har xil ma'noda kelishi ham mumkin. Va ayrim so’zlarning etimologiyasi hamda hozirgi kundagi muqobili ham mavjud. Ayrimlari esa hozirgi kunda muloqot jarayonida ko'p qo'llanilmaydigan qatlamni tashkil etadi. Bunday so’zlar XI-XIV asrlarda yaratilgan qadimgi lug’atlar “Devonu lug’otit turk”, “Attuhfatuz zakiyati fil lug’atit turkiya”, “Kelurnoma” tarkibida uchraydi. Oziq-ovqat nomlaridan ushbu lug’atlarda qo’llanilgan non leksemasiga e’tibor qaratsak. “Devoni lug’otit turk”da oziq-ovqatlar va taomlarning manbasi, taom turlari, oziq-ovqat xom-ashyosining hozirlash jarayoni, taom tayyorlash va iste’mol qilishga kerakli oshxona quollariga doir juda muhim ma'lumot o’z ifodasini topgan. Mahmud Qoshg’ariyning “Devoni lug’otit turk” asarida keltirilgan ma'lumotlarga ko’ra, turkiy xalqlarning taomlari rang-barang bo’lishi bilan birga, ulardagi taomlarning umumiyy, o’xshash jihatlari mavjud bo’lib, ular taomlar tayyorlanadigan mahsulotlarga emas, balki taom tayyorlash usullarida ham o’z ifodasini topgan. Mahmud Qoshg’ariyning taomlar yuzasidan keltirgan ma'lumotlaridan o’troqlashgan turkiy xalqlarning an'anaviy taomlari, asosan, dehqonchilik mahsulotlaridan, don mahsulotlari, sabzavot va mevalardan iborat bo’lgan bo’lsa, ko’chmanchilik turmush tarzi bilan hayot kechiruvchi turkiy xalqlar taomlarida ko’proq sut va go’sht mahsulotlaridan foydalanganliklarini anglash mumkin bo’ladi.

Qoraxoniylar davriga iod taomlar to’g’risida so’z yuritishdan oldin o’sha davrlarda taomlarni tayyorlash uchun ishlangan maxsus moslama o’choq va qozonlar haqida to’xtalib o’tsak. Mahmud Qoshg’ariyga ko’ra, ustiga qozon yoki idish qo'yib taom pishiriladigan o’choq, uchyoq, dala o’chog’i – orkuch deb atalgan. Bunday o’choqlar asosan ko’chmanchi chorvadorlar uchun foydalanishga juda qulay bo’lgan. Bundan tashqari Mahmud Qoshg’ariy qozon osiladigan uch oyoqli temir asbob (temir o’choq) balandligi ya’ni yarim gaz balandligidagi narsaga – tenoch deb atalishini aytib o’tadi.

Unga ko'ra turkiy xalqlarda temirchi o'chog'ining qo'rasiga o'xshatib qurulib, non pishiriladigan yer tandir – avran deb atalgan.

Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asarida umoch, ugra sinagari taomlar haqida quyidagi ma'lumotlar keltirilgan:

qijma ogra – bir xil xamir nomi, uni chumchuqlar tili kabi yupqa va qing'ir qilib kesiladi;

sarmachoq – ugra oshning bir turi. Xamirni no'xatdan maydalab, kesib tayyorlanadi. Buni kasal va kasalga o'xshashlar ichishadi.;

tutmach – turklarning mashur ovqati. Bu ovqat Iskandar Zulqarnaynga nisbatli ovqatdir. Shundayki, Iskandar zulmatidan chiqqach oziqlari kamayib qolgan odamlar ochlikdan qo'rqib, unga "Bizni och qo' qo'yma, och tutma", degan gap mazmunida "Bizni och qo'yma, och tutma" degan gap mazmunida "Bizni tutma och, qo'yib yubor, bizlar yurtimizga ketaylik", - deganlar. Iskandar bilimdonlar bilan kengashgan va ular shu ovqatni tayyorlaganlar. Bu ovqat gavdaga quvvat berib, yuzni qizartirar, tezda hazm bo'lmas ekan. Bu ovqat yeylgach suvidan ham ichilar edi. Turklar bu ovqatni ko'rgach "*Tutmach*" deb atadilar. Asli tutma ach, ya'ni "och tutma" demakdir.

Mahmud Qoshg'ariy ta'riflagan tutmach, uvalangan xamir solinib pishirilgan suyuq umoch oshni xalqimiz qadimdan suyb iste'mol qilganligi haqida hozir keksalardan ko'p eshitamiz.

"Devoni lug'otit turk" dagi non leksemasiga e'tbor qaratsak. Non bu – o'zi aslida un va suvdan tayyorlanadigan, qadim-qadimdan ulug'lanib, insonning kundalik iste'molida muqaddas, aziz hisoblangan ne'mat. Biz uchun non leksemasi bitta va oddiy tushunchadek tuyiladi, ammo uning qadimgi turkiy lug'atlarda uchraydigan har bir turiga (shakl,hajm, paronimlik xususiyatlariga) alohida-alohida nom berilgan. Quyida buni qiyoslash orqali ko'rib chiqamiz. Birgina "Devoni lug'otit turk" asarining 1-jildida non leksemasiga doir 10 ta so'z mavjud:

- 1) ywypš ётмäк – ushatilgan non, burdalangan non (93-bet)
- 2) ёбмäк – non (126-bet)
- 3) ётмäк – non (127-bet)
- 4) ёсбірі – issiq qo'lda pishirilib, yoqqa to'g'rab, ustiga shakar sepib yeylimadigan non.
- 5) чоп – tutmoch (non) parchasi, burdasi (309-bet)
- 6) бір кёс ётмäк – bir bo'lak non (317-bet)
- 7) кёмäч – ko'moch, o'choqda cho'qqa qo'yib pishiriladigan non (341 -bet)
- 8) қатма – yog'da pishiriladigan qat-qat non (qatlama) (407-bet)
- 9) бүскäч – yupqa non (422-bet)
- 10) кўwwäk – yaxshi xamirdan bo'lgan non (442-bet)

Yuqorida berilgan so'zlardan ko'riniib turibdiki, o'sha paytda ham nonlarning xilma-xilligi bo'lgan; o'choqqa qo'yib pishiriladigan, yog'da pishiriladigan, qat-qat non kabi turlarga ajratilgan. "Devoni lu'otit turk" asarining 3-jildida ham non turlari

berilgan: *jy&a* – qat-qat non (34-bet),
қујма – bir xil yog'li non nomi (188-bet), қујма – bir xil yog'li non nomi (188-bet), қара
ётмәк –bu bir xil nondir (241 -bet). “At-tuhfat” asarida esa bo'g'irsoq hamda maxsus
non leksemalari keltirilgan: *бурсақ* – bo'g'irsoq non (191-bet), *іршік* –maxsus non (210-
bet). O'sha paytlar termin va so'zlar, har bir ma'noni ifodalash uchun va nonning
sifatini izohlash uchun turkiy tilda nonning har xil leksemalari keltirilib o'tilgan.
Hozirgi kunda bo'g'irsoq (*бурсақ*), qat-qat (јуға – qat-qat non (34-bet) (қатма – yog'da
pishiriladigan qat-qat non qatlama (407-bet), yog'da qovuriladigan hamda sariyog'
bilan iste'mol qilinadigan non turlari mavjud. Shuningdek, qadimgi turkiy lug'atlarda
olma leksemasi ham shakli va xususiyatiga ko'ra farqli ravishda berilgan:

- 1) älmä – olma (o'g'uzcha, MK – 1-jild,150 b);
- 2) алмїла – olma (MK– 1 -jild,156 b);
- 3) қиміз алмїла – qimizak olma (MK– 1-jild,nordon, 346 b);
- 4) а:лма – olma (At-t,31 b);
- 5) алмä – olma (Kl, 78 b);
- 6) Alma – olma (DTS, 36 b);
- 7) Alïmla – yarimta olma (DTS, 74 b).

Yuqorida keltirilgan so'zliklar bir qaraganda shakli birdek ham bo'lib ko'rindi, ammo ayrim tovush va harflarda tafovutlar yetarlicha. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, qadimgi davrda nomlangan oziq-ovqat nomlari vaqt, vaziyat, mohiyatdan kelib chiqib ayrim fonetik o'zgarishlarga uchragan bo'lishi mumkin. Demak, har bir davrda ijtimoiy jihatdan ham, so'zlarning kelib chiqishi va qo'llanilishi uning lug'at tarkibiga kiritilishi asosan, vaziyat va mohiyatga bog'liq bo'lib boraveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mahmud Koshg'ariy. Turkiy so'zlar devoni (Devonu lug'otit turk). – Toshkent: Fanlar Akademiyasi, 1963.
2. Attuhfatuz zakiyatü fillug'atit turkiya [Turkiy til (qipchoq tili) haqida noyob tuhfa]. – Toshkent: Fan, 1968.
3. Древнетюркский словарь. – Ленинград: Издательство “наука” ленинградское отделение, 1969.
4. Sadoqat R., Umurqulov B. O'ZBEK TILI LEKSIKASINING ISHLATILISHI. – 2022.
5. Temirova K. “PALOV OSH” ETIMOLOGIYASI XALQ AFSONASIDA //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – T. 2. – №. 10. – C. 242-246.
6. Xidirova, I. ., & Jo'rayeva, M. (2023). LEXICAL-SEMANTIC ANALYSIS OF DIALECTISMS USED IN THE WORK OF ART (IN THE EXAMPLE OF THE WORK "ROCKS ALSO CRY"). *Modern Science and Research*, 2(3), 142–144.